

## “YANGI DAVR SARI QADAM”

*Tursunov Asilbek Hayrullayevich*

*Bo'lajak O'zjoku talabasi*

*E-mail: [asilbek20050730@gmail.com](mailto:asilbek20050730@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek xalqining XX asrdagi qiyinchiliklari mustaqillikkacha bo'lgan yo'l, va undan keyingi prezidentimiz tomonidan “Yangi O'zbekiston” loyihasidagi qilinayotgan ijobiy o'zgarishlar haqida muallif tomonidan bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** XX asr, urush yillari, uzoq kutulgan mustaqillik, “Yangi O'zbekiston” loyihasidagi ijobiy demokratik o'zgarishlar va yangi “Era” ning boshlanishi.

Bir mavjudod yaralibtiki albatta u bir kun kelib o'z omonatini topshiradi, vaqt hech kimni hech qachon kutib turmaydi. Kunlar oylarga, oylar esa yillarga ulanib hayot davom etaveradi, har bir jamiyatda har bir kasbda ham avlodlar almashinuvi sodir bo'ladi bu hayot qonuni. Keling uzoqqa bormay o'z yurtimizga avval razm solsak, 1991 yil 1- sentyabr bu kun kelishini o'zbeklar uzoq kutti va bu muqaddas orzu esa tinimsiz say harakatlar evaziga ro'yobga chiqdi, vatanimiz butunlay mustaqil davlatga aylandi. Bu o'z navbatida bizda yangi bir davr boshlanganligidan dalolat beradi. Lekin bu o'z o'zidan bo'lgani yo'q albatta XX asrda bizning ota bobolarimiz onalarimiz bu mustaqillik yo'lida judayam ko'p zahmat chekishdi, ayniqsa Germaniyaning Sovet Ittifoqiga qilgan urush yillari ko'plab MDH davlatlar singari bizning yurtga ham ko'plab jiddiy talofatlarni olib keldi, yani bizning tabiiy resurslarimiz ozuqalarimiz ularning juda katta qismi frontda jang qilayotganlarga yuborilardi. Bu vaqtda esa eng yomoni urushga yuborilgan vatandoshlarimizdan ko'plab qora xatlar kela boshlardi, ayollar beva bo'lib onalar farzandlaridan ayrilar yosh go'daklar esa yetim bo'lib qolar edi buni so'z bilan tariflab berishning o'zi bir daxshatli holatga soladi insonni. Urushdagi g'alabadan keyin ham holat barqarorlashmadi tabiiyki bunga vaqt kerak bo'lgan, bu gaplar bilan sizning kayfiyatingizni tushurmoqchi emasman aksincha hozirgi tinch osoyishta va barqaror zaminda yashayotganligimizga shukronalik qilishimiz va bu kunga yetib kelish oson bo'lmaganligi bu uchun o'zini qurbon qilgan ota bobolarimizning xissalari beqiyosligini anglashimiz darkor, ularni doim xotirlab yashaymiz va aslo bu kunlarni unutishga haqqimiz yo'q. Mustaqillikka erishishimizda 1- prezidentimiz I. Karimovning ham xissalari borligini alohida takidlab o'tmoqchiman, bu insonsiz bu narsa amalga oshishi qiyin edi albatta. 2016 – yilgi fojiadan so'ng Sh. Mirziyoyev saylovdagi ovozlarga

ko'ra prezidentlikga tayinlandilar, va bir qator ijobiy o'zgarishlarni konstitutsiyamizga kiritdilar. Xalqimizga bo'lgan e'tiborlari va yoshlarni har jabhada u hoh o'qish bo'ladimi, kasb bo'yicha bo'ladimi yoki sport sohasida bo'ladimi o'z ishini professionalni bo'lish uchun barcha shart sharoitlarni yaratib beryaptilar. Maqolam nomini. "Yangi davr sari qadam" deb nomlashga sabab bo'lgan voqeilik ham shu muhtaram prezidentimizning "Yangi O'zbekiston" da qilayotgan islohotlari bularga misol qilib aytishim mumkunki qadimiy tariximiz, boy madaniy merosimiz, milliy – diniy qadriyatlarimiz, o'zligimiz tiklandi. Mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning jahon miqyosidagi shon – shuhratini oshirishga katta hissa qo'shish, davlatimiz iqtisodiyoti va aholi farovonligini yuksaltirishda qilinayotgan islohotlar, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar. Eng asosiysi, barcha qilinayotgan ishlar xalqimizni rozi qilish uchun amalga oshirilayotgani buning yorqin misolidir.

Muvaffaqiyatli mamlakatlar ko'rsatganidek, zamonaviylashish ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy siljishni maqsad qilgan jamiyatni isloh qilish unib liberallashtirish, fuqarolik qadriyatlari inson huquqlari va liberal erkinliklarning haqiqiy tashuvchisi bo'lgan mas'uliyatli fuqaroni shakllantirmay turib, tasavvur qilish murakkab. Shu munosabat bilan O'zbekiston islohotlarida avval boshidanoq jamiyat hayotining barcha jabhalarini liberallashtirishga katta e'tibor qaratilganligi qonuniydir. Birinchi navbatda, xalq bilan to'g'ridan – to'g'ri muloqot yo'lga qo'yildi, bu "hokimiyat masofasi" deb ataladigan masofani qisqartirish yo'nalishini anglatadi. Xalq bilan to'g'ridan – to'g'ri muloqot odamlar o'z fikrlarini erkin ayta oladigan, hamda davlat organlari deputatlari va rahbarlari bilan bevosita muloqot o'rnata oladigan, OAV va ijtimoiy tarmoqlar ko'rinishidagi erkin axborot maydonchalarini yaratishni anglatadi. Bularning barchasi zamonaviy demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir "Yangi O'zbekiston" strategiyasidagi asosiy maqsad har bir fuqaroning millati tili va dinidan qat'i nazar uning qonuniy manfaatlari va farovonligi ta'minlanadigan, kelgusida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish amalga oshiriladigan xalq va insonparvar davlatni yaratish hisoblanadi. Mavzuga oid xulosa qiladigan bo'lsam "Yangi O'zbekiston" ni rivojlantirish, strategiyasini qabul qilish va konstitutsiyaga qo'shimchalar kiritish ustida ishlash yaqqol ko'rsatdiki, islohotlar o'z oldiga yangi keng ko'lamli maqsad va vazifalarni qo'ygan qaytarib bo'lmas xarakter kasb etadi. Ularni amalga oshirishning ijobiy natijalarini yaqin yillarda O'zbekistonning har bir fuqarosi bo'lganiday, jamiyat ham, umuman olganda, davlat ham o'zida his qilishi zarur. Bu endi yangi o'ziga ishongan, kuchli saloyatga ega bo'lgan yoshlardan tashkil topgan yangi "Era" ning boshlanishidir, uni siz va biz birga hamjihatlikda bunyod etamiz.